

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TILLABOEVA MUVAZZAM BAXTIYOROVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT ORGANLARI VA  
MANSABDOR SHAXSLARNING JAMIYAT VA FUQAROLAR OLDIDA  
MAS‘ULLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Tillaboeva Muvazzam Baxtiyorovna**

O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas‘ulligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari .....3

**Тиллабоева Муваззам Бахтиёровна**

Конституционно-правовые основы ответственности государственных органов и должностных лиц перед обществом и гражданами в Республике Узбекистан.....23

**Tillaboeva Muvazzam Baxtiyorovna**

Constitutional and legal bases of responsibility of state bodies and officials to society and citizens in the Republic of Uzbekistan.....44

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....46

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TILLABOEVA MUVAZZAM BAXTIYOROVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT ORGANLARI VA  
MANSABDOR SHAXSLARNING JAMIYAT VA FUQAROLAR OLDIDA  
MAS‘ULLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.3.PhD/Yu788 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Diccertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-cahifacida (www.karsu\_info@edu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Daumenov Berdax Aymuratovich**  
yuridik fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yusupov Sardor Bahodirovich**  
yuridik fanlari doktori, professor.

**Allambergenov Saparbay Dauletbaevich**  
yuridik fanlari falsafa (PhD) doktori

**Etakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “02” noyabr kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Nukus shaxri, Ch.Abdirov ko‘chasi,1 joy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@gmail.ru.

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, №1 joy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2024 yil 15-oktyabr “6” raqamli reestr bayonnomasi).

**E.D.Kutibaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M.Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Z.A.Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligini oshirishga qaratilgan samarali huquqiy tartib-taomillarni shakllantirib borish dolzarbligi tobora oshib bormoqda. Bu yo'nalishda har bir davlatning amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifalari "Ayrim shaxslar, guruhlar va organlarning umume'tirof etilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini targ'ib va himoya qilish huquqi va javobgarligi to'g'risida"gi BMTning 1998-yil 9-dekabrda Deklaratsiyasining 14-moddasi 1-bandidagi "Davlat o'z yurisdiksiyasidagi barcha shaxslarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini tushunishini ta'minlash uchun qonunchilik, sud, ma'muriy yoki boshqa tegishli choralarni ko'rish uchun javobgardir" kabi g'oyalar tizimiga asoslanadi<sup>1</sup>.

Jahonda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligi va konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligining institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, jumladan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi o'zlarining konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining samaradorligi hamda ta'sirchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish, ularning ijro etilish tartib-qoidalarini xalqaro standartlar va huquq me'yorlariga moslashtirish, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligidagi sanksiyalar tayinlash mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishda ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar izchilligini ta'minlash tegishli huquqiy mexanizmlarni shakllantirishni talab etadi<sup>2</sup>. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning, jumladan, davlat hokimiyati vakillik organlarining va davlat hokimiyati ijroiya organlarining mas'ulligi hamda ular faoliyatining samaradorligi oshirish, ularning o'z vakolatlarini amalga oshirishida umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari hamda zamon talablariga mos ravishda tashkil etish, ularda ilg'or ish usullarini hamda qonunchilik va intizomga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish birlamchi vazifa etib belgilandi. Xususan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligini kuchaytirish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 13-bandida va 5-maqсадida belgilangan davlat boshqaruvi organlarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar

<sup>1</sup> [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/defender.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/defender.shtml)

<sup>2</sup> "Inson kadri uchun" – Шавкат Мирзиёевнинг сайловолди дастури // <https://www.president.uz>

g'oyalarning ustuvorliklarida o'z aksini topgan<sup>3</sup>. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi (1993), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi (2002), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi (2002), "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi (2019), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlari (2013), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017), "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022), "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi (2023), "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2024) farmonlari va tadqiqot mavzusiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining mas'ulligiga oid umumnazariy masalalar mamlakatimiz huquqshunos olimlari Sh.Z.O'razaev, A.A.Azizxo'jaev, S.M.Adilxodjaeva, M.A.Axmedshaeva, O'H.Muhamedov, A.X.Saidov, Sh.A.Saydullaev, I.T.Tulteev, A.S.Tursunov, E.H.Xalilov, A.M.Xashimxonov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Davlat organlarining jamiyat oldidagi mas'ulligini oshirishdagi javobgarligining yuridik, shu jumladan ayrim konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari R.R.Xakimov, O.T.Xusanov, E.D.Kutibaeva, K.U.Umarova, Z.A.Reymova, B.A.Daumenov, I.A.Xamedov, F.Otaxonov, A.To'laganov, X.S.Xayitov, Sh.G'Asadov, B.I.Ismoilov, G.R.Malikova va boshqalar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

Xorij olimlaridan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari D.I.Bernshteyn, M.A.Krasnov, I.A.Alekseev, O.E.Leyst, N.M.Kolosova, V.O.Luchin, E.Chemerinskiy, N.A.Bobrova, A.N.Pugachev, O.V.YAtsenko, P.A.Katigarov, A.Yu.Korendyuk va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son

<sup>4</sup> Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Mavzuni har tomonlama o'rganish maqsadida xorijiy ilmiy ishlar va amaliyotlardan ham foydalanilgan.

Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligining konstitutsiyaviy-huquqiy jihatlari maxsus tadqiq etilmaganligi, uning nazariy, huquqiy va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq tomonlari alohida o'rganilmaganligi hamda tegishli ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi tadqiqot ishiga alohida dolzarflik bag'ishlaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi fundamental loyihasi (2022 – 2026) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligini ta'minlashda ularga nisbatan konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralari qo'llash samaradorligini oshirish yo'llari va usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligi tushunchasi, huquqiy tabiati va mazmun-mohiyatiga oid ilmiy-nazariy ishlanmalarni tadqiq qilish;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining qonunchilik asoslarini tahlil qilish;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining ifodalanish shakllarini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligini amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq qilish;

mahalliy vakillik hokimiyati organlarining jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining xususiyatlarini ochib berish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligini amalga oshirishning huquqiy jihatlari o'rganish;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi bo'yicha chet el tajribasini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni shakllantirish;

ma'muriy islohotlar sharoitida davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatining ustuvor yo'nalishlari va konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi bilan bog'liq yuzaga keladigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning predmet**ini davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligining mazmuni va mexanizmlari, ularni

belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy kontseptual yondashuvlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda ilmiy bilimning tizimli, mantiqiy analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduktsiya kabi usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

deputatga nisbatan uning vakolatining muddatidan ilgari tugatilishiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarini qo'llashda umumiy g'oyaviy mazmundagi asoslar bilan birga aniq o'lchovli mezonlarga ega bo'lgan baholash asoslarini belgilash zarurligi asoslab berilgan;

ishonchni yo'qotganligi asosida saylovchilarga ham deputatni bevosita chaqirib olish bo'yicha tashabbus ko'rsatish huquqini berish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

deputatni chaqirib olish asoslariga oid "deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi" to'g'risidagi, shuningdek "deputatni chaqirib olish masalasini ko'rish uchun, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiyaning taklifi asos bo'lishi mumkinligi" haqidagi huquqiy mexanizmi takomillashtirish hamda amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek bu boradagi qonunosti hujjatlarini qonunlarga moslashtirish zarurligi asoslantirilgan;

fuqarolar vakillari o'z vakolatini fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) navbatdagi saylovi boshlanganligi e'lon qilinadigan vaqtga qadar amalga oshirishi maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi;

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining yangi tahriri ishlab chiqildi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatidagi konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq qonunosti hujjatlardagi holatlarning qonunlarga mos bo'lmagan holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi;

mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimida konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash bilan bog'liq qonunchilikda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlar yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, uning natijalari etakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosa va amaliy takliflardan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligini ta’minlashni takomillashtirish bilan bog’liq tadqiqot ishlarini olib borishda, qonun ijodkorligi sohasida, mavzuga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda va takomillashtirishda hamda sohaga oid fanlarni o’qitishda, o’quv va metodik qo’llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligining nazariy-huquqiy asoslariga oid qonunchilikni hamda bu boradagi huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirish bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo’yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

deputatga nisbatan uning vakolatining muddatidan ilgari tugatilishiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarini qo’llashda umumiy g’oyaviy mazmundagi asoslar bilan birga aniq o’lchovli mezonlarga ega bo’lgan baholash asoslarini belgilash zarurligi to’g’risidagi taklifdan O’zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to’g’risida”gi Qonunining 3-moddasini takomillashtirishda foydalanilgan (*O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo’mitasining 2023-yil 31-iyuldagi 23-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi deputatga nisbatan konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarini qo’llashning ta’sirchan mexanizmlarini yaratishga xizmat qilgan;

ishonchni yo’qotganligi asosida saylovchilarga ham deputatni bevosita chaqirib olish bo’yicha tashabbus ko’rsatish huquqini berish maqsadga muvofiqligi haqidagi taklifdan O’zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a’zosini chaqirib olish to’g’risida”gi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritilishida inobatga olingan (*O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo’mitasining 2023-yil 31-iyuldagi 23-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi deputatni chaqirib olish tashabbusiga ega subyektlar doirasini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

deputatni chaqirib olish asoslariga oid “deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko’rsatgan siyosiy partiya oldidagi o’z majburiyatlarini bajarmaganligi” to’g’risidagi, shuningdek “deputatni chaqirib olish masalasini ko’rish uchun, uni deputatlikka nomzod qilib ko’rsatgan siyosiy partiyaning taklifi asos bo’lishi mumkinligi” haqidagi huquqiy mexanizmni takomillashtirish to’g’risidagi taklifdan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 11-maydagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Odob-axloq komissiyasini tuzish to’g’risida”gi 3161–IV-sonli qarorining 8 va 22-bandlarini takomillashtirishda inobatga olingan (*O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo’mitasining 2023-yil 31-iyuldagi 23-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi deputatni chaqirib olishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

fuqarolar vakillari o'z vakolatini fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) navbatdagi saylovi boshlanganligi e'lon qilinadigan vaqtga qadar amalga oshirishi maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunini takomillashtirishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2024-yil 31-yanvardagi 7-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi fuqarolar vakillari vakolat muddatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, 8 ta paragrafdan iborat bo'lgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflanib, ularning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**"Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining nazariy asoslari"** deb nomlangan, uchta paragrafdan iborat birinchi bobida davlat organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi tushunchasi, huquqiy tabiati va mazmun-mohiyati, konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik asoslari, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligidagi sanksiyalar tizimi va turlari tahlil qilingan.

*"Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik"* tushunchasi mazmun-mohiyati, qo'llanilish asoslari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o'rganilib, olimlar qarashlari tahlil qilingan. Xususan, D.I.Bernshteyn, X.T.Odilqoriev, A.Yu.Klimanova, I.A.Alekseev, G.M.Tansiqbaeva, M.M.Abdullaeva, O.T.Xusanov, A.Yu.Korendyuk, K.Umarova, O.V.Yatsenko, R.R.Xakimov kabi olimlarning qarashlarini o'rganish asosida ushbu tushunchalar mazmunini ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, muallif konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikning qo'yidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: 1) konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik vujudga kelishining asosi bu konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning buzilishi; 2) konstitutsiyaviy-huquqiy

javobgarlik subyektlari sifatida faqat konstitutsiyaviy huquq va burchga ega bo'lgan huquq subyektlari bo'lishi; 3) konstitutsiyaviy qonun hujjatlarida konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortishning maxsus, murakkabroq tartibi nazarda tutilishi; 4) konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarning o'ziga xos turlari, masalan, (siyosiy partiya qarorining konstitutsiyaviy nomuvofiqligining tan olinishi), ogohlantirilish (jamoat birlashmasining noqonuniy faoliyatini tugatish to'g'risida adliya organining yozma ogohlantirishi) huquqbuzarni jazolash maqsadida javobgarlikka tortish choralari (ro'yxatga olishni rad etish), oldini olish sanksiyalari (faoliyatini to'xtatish) qo'llanilishini nazarda tutadi.

Tadqiqotchi konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik tushunchasi konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar va konstitutsiyaviy-huquqiy sanksiyalar toifalarining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi, deya ta'kidlaydi. Bunda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik har qanday huquqiy javobgarlikning qonuniy, legitim asosi bo'lib, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni buzganlik holati yuzaga kelishini asoslab o'tadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy va boshqa huquqiy javobgarlik turlarini farqlash jarayonida, konstitutsiyaviy huquqbuzarliklar va konstitutsiyaviy-huquqiy sanksiyalarning tarkiblarini qonuniy jihatdan belgilash muhimligiga e'tiborini qaratadi.

Tadqiqotchi o'z ishida konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikning paydo bo'lish asoslarini ikki turga ajratib ko'rsatadi: ijobiy (istiqbolli) va salbiy (retrospektiv). Bunda *ijobiy javobgarlik* – konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat subyektlariga ushbu munosabatlarni oqilona rivojlantirish manfaatlari yo'lida muayyan vazifalarni bajarish majburiyatini yuklash va o'zining faoliyati bo'yicha boshqa subyekt oldida javobgar bo'lishida yuzaga kelishi belgilangan. *Salbiy javobgarlik* esa Konstitutsiya va boshqa qonunlarga zid xatti-harakatlar uchun javobgarlik bo'lib, unda sanksiyalar majmuida yoki konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralari orqali ifodalanishi bayon qilingan.

Tadqiqot ishida konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikning asosi sifatida yuridik faktlar majmuasi hisoblangan *amaliy asos* va normativ-huquqiy hujjatda huquqbuzarlik tarkibini belgilab beruvchi *normativ-huquqiy asos* ajratib ko'rsatilgan. Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish asosi sifatida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar va hodisalar majmui tashkil etishi, ya'ni muayyan harakatlarni sodir etish natijasida saylovchilarning ishonchini yo'qotish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, budget mablag'larini maqsadsiz sarflash tushunilishi asoslantirilgan.

Shuningdek, muallif tomonidan bir qator olimlar (P.I.Kuchura, A.S.Koshel, P.A.Luchin, F.Raximov, G.A.Trofimova, M.Yu.Viskrebentseva, Sh.Asadov) qarashlari tahlil qilinib, konstitutsiyaviy huquqbuzarlikning belgilari sanab o'tilgan. Bunda konstitutsiyaviy huquqbuzarlikning belgilari sifatida: *birinchidan*, konstitutsiyaviy huquqbuzarlik zarar etkazish shaklida bo'lishi kerakligi (harakatli yoki harakatsizlik); *ikkinchidan*, noqonuniylik – ushbu qilmish huquqiy norma talablariga zid bo'lishi kerakligi; *uchinchidan*, aybdorlik – sodir etgan xatti-harakatni yovuz niyat yoki beparvolik shaklida amalga oshirgan subyektning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka nisbatan ruhiy munosabati; *to'rtinchidan*, jamoat xavfi – davlat hokimiyatini amalga oshirishda qonun bilan himoyalangan

ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishda (zarar yetkazish yoki zarar yetkazish xavfini tugʻdirishda) ifodalanishi; *bashinchidan*, jazoga tortilish – ushbu qilmish uchun konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik qonunchilikda nazarda tutilishi kerakligi; *oltinchidan*, maxsus javobgarlik subyekti – davlat organlari va ushbu organlarning mansabdor shaxslari va jamoat birlashmalari ekanligi nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik asoslarini oʻziga xos huquqiy normaning (normativ asosning) buzilishi va shu bilan birga shaxsning xatti-harakatlarida konstitutsiyaviy-huquqbuzarlik aniq tarkibining (faktik asosning) mavjudligi tashkil etishi asoslantirilgan.

Shu bilan birga, muallif konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarmagan (toʻgʻri bajarmagan) yoki huquqlardan suiisteʻmol qilingan taqdirda huquq subyektiga nisbatan majburiy taʻsir koʻrsatishning qonuniy ravishda belgilangan noqulay choralari konstitutsiyaviy-huquqiy sanktsiyalar sifatida tavsiflanishiga eʻtiborini qaratadi.

**“Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi masʻulligining tashkiliy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy vakillik hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslarining konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi masalalari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida muallif Oliy Majlisning masʻuliyatini amalga oshirish mexanizmlari sifatida uni tarqatib yuborish, deputatlarni esa chaqirib olish, muntazam ravishda hisobot berish, saylovchilar, siyosiy elektorat va partiyaning talablarini bajarish majburiyatini keltirib oʻtadi. Bunda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralarini qoʻllash vakolatiga ega boʻlgan subyektlarga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va bevosita qaror qabul qiladigan okrug saylovchilari taaluqli boʻlishi mumkinligini, ishtirokchilar qatoriga esa Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini kiritish mumkinligini taʻkidlab oʻtadi, chunki u konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortishga rozilik berishini asos qilib koʻrsatib oʻtadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish huquqining Prezidentga berilishining huquqiy asosi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida belgilangan davlat boshligʻi va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini taʻminlash borasidagi vakolatidan, shuningdek 109-moddada belgilangan fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir degan vakolatidan kelib chiqishini taʻkidlab oʻtadi.

Tadqiqotchi Oliy Majlisni tarqatib yuborish yoʻli bilan vakolatlarini muddatidan oldin tugatish uchun ikkita asosni, yaʻni, birinchidan, Konstitutsiyaning 111-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasi bilan Senat oʻrtasida Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib boʻlmaydigan ixtiloflar yuz berganda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkinligini va *ikkinchidan*, Konstitutsiyaning

119-moddasiga binoan Bosh vazirga ishonchsizlik votumi mexanizmi ishga tushirilgan taqdirda sodir bo‘lishi mumkinligini asoslab o‘tgan.

Tahlillar natijasida tadqiqotchi ushbu tarqatish mexanizmlari ularning subyektivligida va qo‘llash asoslari aks ettirilishini qayd etadi. Shunday qilib, tarqatib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi subyektlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Konstitutsiyaviy sudi bo‘lib, umuman Oliy Majlis yoki palatalardan biri, xususan, Qonunchilik palatasi yoki Senat tarqatib yuborilishi mumkin.

Birinchi holatda tarqatib yuborish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Konstitutsiyaviy sudning birgalikdagi ishtirokida amalga oshiriladi va butun Oliy Majlis, bu degani bir vaqtning o‘zida uning ikkala palatasi ham, shuningdek alohida palatalardan biri – Qonunchilik palatasi yoki Senat tarqatib yuborilishi mumkin. Ikkinchi holatda esa ishonchsizlik votumi bilan tarqatib yuborishda faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirok etishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan deputatlarga nisbatan konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralari nazarda tutuvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar (*“Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2015-yil 22-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Odob komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 112/1-III-sonli qarori va 2015-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining deputatlik odobi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 122-III-sonli qarori*) tahlil qilingan. Tahlillar natijasida mazkur Qonunning 1-moddasi 5-qismida keltirilgan deputatni chaqirib olish asoslariga oid “deputatning uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi” holati va Qonunning 2-moddasi 2-qismida keltirilgan “deputatni chaqirib olish masalasini ko‘rish uchun, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiyaning taklifi asos bo‘lishi mumkinligi” holatlari Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangan tegishli Nizom va Qoidalarda keltirib o‘tilmagan. Bu holat deputatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq siyosiy partiyalarning qonun bilan mustahkamlangan huquqlarini cheklash holatini keltirib chiqarishini va mazkur qonunosti hujjatlarini tegishli qonunga muvofiqlashtirish zarurligini ta‘kidlanadi.

**“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas’ulligining ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi kollegial va yakka tartibda amalga oshirilishi asoslantirilgan. Dissertant tomonidan qonunchilikda Vazirlar Mahkamasining xalq oldidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarligining konstitutsiyaviy asoslari belgilanmaganligi qayd etilgan. Xalqning Vazirlar Mahkamasini javobgarlikka tortish shakli u tomonidan bevosita saylovlar orqali shakllantirilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli maxsus vakolatlari bilan amalga oshiriladi. Bu degani Vazirlar Mahkamasining xalq oldidagi mas’ulligi bevosita emas, balki

bilvosita demokratiya orqali vakillik davlat hokimiyati organlari vakolatlari asosida ta'minlanib borilishi izohlab o'tilgan.

Tadqiqotchi fikricha, parlament instituti orqali xalqning oldida Hukumat javobgarligini ta'minlashda parlamentning faoliyatida qo'llaniladigan parlament nazorati shakli muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslantirilgan. Ta'kidlashicha, hukumatning parlament javobgarligi shakllariga: ishonchsizlik votumi va ishonchni rad etish kabi javobgarlik shakllarini qo'llashni kuchaytirish lozim.

Dissertatsiyada ishonchsizlik votumi masalasi bo'yicha qator xorijiy davlatlar (Fransiya, Polsha, Italiya, Latviya, Litva, Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Niderlandiya) amaliyoti va qonunchiligi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida quyidagicha xulosaga kelingan: 1) parlament nazorati faoliyatining muhim jihati, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumini e'lon qilish orqali hukumatning parlament oldidagi mas'ulligini ta'minlashda ko'rinadi; 2) hukumatga ishonchsizlik bildirish tartibi bo'yicha parlamentning ikkala palatalari tomonidan tashabbus ko'rsatilishi kerak; 3) hukumatni iste'foga chiqarish tartibi nafaqat parlamentning tashabbusiga, balki hukumatning o'zining tashabbusiga ham asoslanishi lozim. Bu hukumatga parlament oldidagi o'ziga ishonch darajasini aniqlash imkonini yaratishga xizmat qiladi.

**“Mahalliy vakillik hokimiyati organlarining jamiyat va fuqarolar oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mas'ulligining xususiyatlari” deya nomlangan ushunchi paragrafida** mahalliy vakillik organlari va ularning mansabdor shaxslarining javobgarligi o'rganilib, ularga nisbatan konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikning ikki turi: jamoaviy (kollegial) javobgarlik va shaxsiy javobgarlik qo'llanilishi izohlanadi.

Dissertatsiyada kollegial konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini tayinlash jarayonida mahalliy xalq deputatlari Kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan, u tomondan hokim lavozimiga taqdim etilayotgan nomzod bo'yicha kelisha olmagan va yagona kelishuvga erishmagan vaziyat yuzaga kelganda qo'llanilishi mumkinligi qayd etiladi. O'z navbatida, muallif mazkur mexanizmning kamchiligi sifatida bunday yondashuvga ko'ra, vakillik organi a'zolarining (deputatlarning) nafaqat qarshi ovoz berganlar, balki Prezidentning siyosiy irodasini qo'llagan holda ijobiy ovoz berganlar ham javobgarlikka tortilishini ta'kidlab, bu holat ularga nisbatan asossiz ekanligini izohlaydi. Shunga ko'ra bunday holatning oldini olish uchun qonunchilikka tegishli o'zgartishlar kiritishni taklif etadi.

Tadqiqotchining fikricha, deputatga nisbatan uning vakolatini muddatidan ilgari tugatilishiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik choralari qo'llashda umumiy g'oyaviy mazmundagi asoslar bilan birga aniq o'lchovli mezonlarga ega bo'lgan baholash asoslarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu masala yuzasidan xorijiy davlatlar, xususan, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlari tajribalari tahlil qilingan.

Shuningdek, ushbu masala bo'yicha tadqiqotchi tomonidan 2023-yilda Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 45 deputati, Xalq leputatlari Marhamat tumani Kengashining 20 deputati va Xalq deputatlari Asaka tumani Kengashining 20 deputati, jami 95 ta deputatlar orasida ijtimoiy so'rovnomma o'tkazilgan. Natijada,

“Deputatlik maqomingiz muddatidan ilgari tugatilishida Sizga nisbatan aybni nafaqat turlari, balki hajmi ham aniq belgilab qo‘yilishi kerak deb hisoblaysizmi?” degan savolga “ha” deb 77 deputat (81%), “Yo‘q” deb 9 deputat (9,5%), “Muhim emas” deb 9 deputat (9,5%) javob bergan. “Bu sizning deputatlik maqomingizni himoya qiladimi?” degan savolga: “Ha” – 78 deputat (82%), “Yo‘q” deb 10 deputat (10,5%), “Muhim emas” deb 7 deputat (7,5%) javob bergan. Shu asosda deputatlarning 82 foizi deputatlik maqomi muddatidan ilgari tugatilishi uchun qo‘yiladigan aybning hajmi aniq belgilab qo‘yilishi kerak deb hisoblashini asoslantirgan, shuningdek bu ularning deputatlik maqomini himoyalashga xizmat qilishini ta‘kidlaydi.

Dissertatsiyada saylovchilarning deputatlik faoliyati ustidan nazoratini amalga oshirish masalalarida ishtirok etishga jalb qilish mexanizmini yaratish zarurligi qayd etilgan. Ya‘ni siyosiy partiyalar bilan bir qatorda, bevosita saylovchilarga ham deputatni chaqirib olish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish huquqini berish maqsadga muvofiq, deb hisoblab, uning asosini “ishonchning yo‘qotilishi” tashkil etishi kerakligini asoslab beradi. Dissertant bunday amaliyot bir qator xorijiy davlatlar: Xitoy, Vyetnam, Belorussiya, Misr, Shveysariya, Slovakiya, Avstriya va AQShning bir qator subyektlarining qonun hujjatlarida belgilanganligiga e‘tiborini qaratadi.

Shuningdek, dissertatsiyada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslarining ikkilik holati izohlanib, ular ommaviy hokimiyatning o‘ziga xos turini – mahalliy hokimiyatni amalga oshirishi ta‘kidlangan. Ommaviy hokimiyatga xos bo‘lgan quyidagi belgilar ajratib ko‘rsatilgan: 1) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish bo‘yicha ommaviy hokimiyat majburiyatlarining mavjudligi; 2) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z qarorlarini majburiy usul bilan bajarilishini ta‘minlash imkoniga egaligi; 3) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan maxsus organlar sifatida ajratilishi.

Tadqiqotchi, shu bilan birga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat hokimiyatidan ajratib turadigan qator xususiyatlarini sanab o‘tadi: 1) uning ta‘siri faqat ma‘lum bir hududga taalluqlidir; 2) davlat tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqlarining qonuniy ravishda cheklanishi; 3) mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni hal qilishda aholining bevosita ishtirok etishining kengroq doirasidagi shakllarga egaligi; 4) fuqarolar yig‘inlarini, ularga berilgan davlat vakolatlarini amalga oshirishlari ustidan davlat nazoratida bo‘lganligi.

Tahlillar natijasida dissertant fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslari davlat hokimiyati belgilariga ham ega, shuning uchun ular fuqarolar yig‘ini aholisining bevosita hayotini ta‘minlash masalalarini hal qilish uchun tegishli vakolatlarga ega, shuningdek, belgilangan hollarda ularga muayyan turdagi davlat vakolatlarini amalga oshirish huquqi beriladi, degan xulosani ilgari suradi.

O‘z navbatida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarning ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lganligi, ularni javobgarlikka tortish uchun mutanosib mexanizmni yaratish zarurligini taqozo etishini ta‘kidlaydi.

Muallifning fikricha, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini (fuqarolar yig'inini) aholi oldidagi konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi qonunchilikda belgilanmagan. Shu o'rinda, fuqarolar yig'ini aholi tomonidan bevosita saylanar ekan, u aholi manfaatini ifoda qilgan holda va o'z vakolatlarini qonun doirasida amalga oshirib borishi lozim bo'ladi.

Tadqiqot ishida fuqarolar yig'inining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish choralarini qo'llash uchun uning konstitutsiyaviy vakolat muddati aniq belgilab qo'yilishi lozimligi asoslantirilgan. Fuqarolar vakillarining vakolatlari, birinchidan, qonunosti hujjati bilan emas, balki qonun darajasida belgilanishi, ikkinchidan, uni fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolning) muddati kabi aniq ko'rsatib belgilanishi maqsadga muvofiqligi qayd etilgan. Mazkur muddat fuqarolar vakillarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish orqali konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikka tortish mexanizmini qo'llashga o'z ta'sirini ko'rsatishi e'tirof etilgan.

